



ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2021-yil, 6-son (130) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor

H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O'zFA akademigi
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
MUSTAFA UGURLU	- профессор (Муғла университети, Туркия)
N.T.NURULLAXODJAYEVA	- professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - 5583,
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

<i>G'afforov Sh. S.</i> Temuriylar davri Movoraunnahrda ta'lim tarixi	4-8
<i>Djurakulova D.M., Yoo In Young</i> Ilk o'rta asrlarda Sug'dning Silla davlati bilan olib borgan savdo va diplomatik munosabatlari	9-12
<i>Ergashev B.</i> Turkiston general-gubernatori mahkamasi ish yuritish faoliyatida tarjimonlik ishi tarixi	13-15
<i>Abdullayev D. N.</i> O'zbekistonda mukofotlash tizimi: shakllanishi, bosqichlari va tarixiy ahamiyati	16-22
<i>Muhamedjanova V.</i> Rus publitsistlari asarlarida Xiva xonligi tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar	23-26

FALSAFA / PHILOSOPHY

<i>Jumayev J.</i> Diniy–ma'rifiy sohada diniy tafakkur genezisi	27-31
<i>Bozorov Sh.S.</i> Ahmad Donish asarlarida jamiyat va davlatchilik to'g'risidagi qarashlar tahlili	32-36
<i>Kubaeva Sh.T.</i> Falsafiy fikrlar taraqqiyotida o'yin fenomeni xususida ilmiy-nazariy qarashlar (Yoxan Xeyzinga "O'ynovchi odam" asari talqinida)	37-40
<i>Barakayeva G.L.</i> Sog'lom turmush tarzi – baxtli hayot asosi	41-44
<i>Mamanazarov S. I.</i> Zamonoviy dunyoqarash va ilmiy tafakkurni shakllantirishda qadiriylarning o'rni	45-48
<i>Maxammatov O. S.</i> Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yoshlar o'rtasida ma'naviy "Vandalizm"ni shakllanish sabablari va tahdidlar	49-42
<i>Oripov J. Ya.</i> Globallashuv sharoitida yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirishning falsafiy asoslari	53-56
<i>Jurakulov V.N.</i> Jadidlar falsafiy qarashlarining xususiyatlari	57-61
<i>Xujanov Z.B.</i> Kambag'allik chegarasi va uning o'lchovlari	62-67
<i>Oripov X.A.</i> Ijtimoiy taraqqiyotda so'z erkinligining o'rni	68-72

<i>Ashurova X.S.</i>		
Samarqand jadidlarining Chor-Rossiyasi mustamlakachilik siyosati to'g'risida		73-76
<i>Xudoyberdiyeva A.H.</i>		
Avesto falsafiy ta'limotida ijtimoiy hamkorlik va mulkdor bo'lish g'oyalari		77-80
<i>Boqiyev F. E.</i>		
Yoshlar mudofaa ongini shakllantirishga doir paradigmalari		81-87
<i>Toshkuvatova R.</i>		
Problem of human in socrates' philosophy		88-92
<i>Безбудиева П.Ш.</i>		
Джадидское просвещение - прогресс духа нации		93-96
SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY		
<i>Turaev L. Sh.</i>		
Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining professional kompetentsiyalarini yuksaltirish		97-100
<i>Turaev L. Sh., Boltayev B.</i>		
Davlat xizmatida rahbar kompetentsiyalari tushunchasi va uning mazmun mohiyati		101-108
IQTISODIYOT / ECONOMICS		
<i>Djumaev A. X., Djumaeva A. R.</i>		
“Covid-19” koronavirus pandemiyasi infeksiyasining mamlakatimiz iqtisodiyotini turizm sohasiga ta'siri		109-114
O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY		
<i>Shayzakova D.A., Mullaboyeva S.X., Nurillayeva N.G'.</i>		
O'quv jarayonida ta'lim sifatini aniqlovchi kompetensiyalardan foydalanish		115-120
<i>Murodov F.M.</i>		
Matematika fanini o'qitish jarayonida O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning ilmiy merosidan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish omillari		121-125
<i>Ганчеренок И.И.</i>		
Компетентностный подход в образовании: синергетическая модель		126-131
<i>Qodirov M.Q., Xushvaqto'v X.A., Voxidov E.R., Qayumov A.O.</i>		
Fizika fanini o'qitishda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha ba'zi mulohazalar		132-141
<i>Adashboyev Sh.</i>		
Oliy ta'lim tizimida QR-kodlardan foydalanish istiqbollari		142-147
UNIVERSITET HAYOTIDAN		
<i>Алимов А. М.</i>		
Миллий рейтинг тизими Ўзбекистон олийгоҳларининг халқаро рейтингдаги кўрсаткичлари ошишига хизмат қилмоқда		148-149

Mualliflarga

UDK: 1(075)

ZAMONOVIIY DUNYOQARASH VA ILMIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA QADIRIYATLARNING O'RNI**S.I.Mamanazarov***Jizzax Politexnika Instituti
Mamanazarov1963@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni tarbiyalashda va ular ongiga Vatanga sadoqat tuyg'usini singdirishda milliy qadriyatlarining ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: jamiyat, islohotlar, qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar.

Роль ценности в формировании современного мировоззрения и научного мышления

Аннотация. Статья научно обоснована на важности национальных ценностей в воспитании молодежи и воспитании у нее чувства преданности Родине.

Ключевые слова: общество, реформы, ценности, общечеловеческие ценности, национальные ценности.

The role of value in the formation of modern worldview and scientific thinking

Abstract. The article is scientifically based on the importance of national values in the upbringing of young people and in the upbringing of the feelings of devotion to the Motherland.

Keywords: society, reforms, values, universal values, national values.

Qadriyatlar tizimi va u bilan bog'liq mavzular insonning o'zi kabi olis tarixiy jarayonlarning tarkibiy qismi, jamiyatning paydo bo'lishi bilan shakllana boshlagan ijtimoiy voqelikning o'ziga xos fenomenidir. Har bir tarixiy bosqich, insoniyat hayotining har qanday davri o'ziga xos qadriyatlar va qadriyatlar tizimlariga ega bo'lishi, bu omilning davlatlar va millatlar tarixi hamda taqdirida ulkan ahamiyatga ega ekanligi taraqqiyotning umumiy qonuniyatidir. Ushbu qonuniyat o'tmishda ham, hozirgi zamonda ham allomalar va mutafakkirlar, olimlar va mutaxassislarining diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Bu borada ko'plab ta'limotlar va nazariyalar yaratilgan, xilma-xil qarashlar va yondashuvlar shakllangan.

Ushbu sohadagi turli nazariyalar va yondashuvlarni umumlashtirish, o'z navbatida ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga o'tishi bilan birga, hayotning barcha sohalari qatori, mavjud qadriyatlar tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlar va yangilanishlar ro'y berishi ushbu jabhaga oid umumiy jarayon ekanidan dalolat beradi. Dunyo globallashib borayotgan va u bilan bog'liq turli muammolar ko'lami kengayayotgan bugungi kunda ham ana shu umumaksiologik qonuniyat amalga oshmoqda va bir tomondan butun insoniyat taraqqiyotining, ikkinchi tomondan esa, tobora yangilanib borayotgan O'zbekiston hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Ayni paytda, jahonning ba'zi mintaqalarida ro'y berayotgan beqarorliklarning yanada tig'izlashib borayotgani va ma'naviy inqiroz bilan bog'liq muammolarning tobora keskinlashayotgani dunyo xalqlarining azaliy an'analari ustivor bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar tizimining jadal o'zgarib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, bunday murakkab ijtimoiy-aksiologik jarayonlarning global qadriyatlar tizimi va mamlaktimizdagi mavjud qadriyatlar majmuiga nisbatan intensiv ta'sirini ta'minlaydigan umumiy qonuniyatlar va uning milliy xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy izlanishlarga e'tibor ortib bormoqda.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta'kidlangani kabi, "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning

donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad - "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat".

Ushbu yo'nalishda bugungi jamiyatimizga xos qadriyatlar tizimining yangilanishi va hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning ushbu jarayonga ta'siri bilan bog'liq masalalar tahlilida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" (T.: "O'zbekiston", 2016), "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" (T.: "O'zbekiston", 2017), "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" (T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017), "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi." (T.: "O'zbekiston", 2017), "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz." (T.: "O'zbekiston", 2017.– 488 b.) kabi asarlari, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni muhim ahamiyatga molikdir. Bu nuqtai nazardan, xalqimizning istiqbolga erishishi, milliy davlatchiligini tiklashi va mustaqillikni mustahkamlashi natijasida jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida ro'y bergan yangilanishlar jarayonining yo'nalishlari va asosiy tamoyillarini o'rganishda davlatimiz rahbarining asarlari ijtimoiy innovatsion qadriyatlar tizimini yanada takomillashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli [2], 2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishva takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qaror va Farmonlari, Davlatimiz rahbarining 2019 va 2020 yillardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalari ham ushbu yo'nalishdagi masalalarning mohiyatini anglash va dolzarb vazifalarni belgilashning metodologik asosi ekanligi shubhasiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotiga xos umumiy qadriyatlar tizimining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'sirida o'zgarib va yangilanib borishi jarayonining ob'yektiv qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan maxsus mavzu sifatida tadqiq qilish ana shu metodolgik manbalar va tarixiy hujjatlarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Bu jihatdan, dunyo miqyosida nihoyatda murakkab tarzda ro'y berayotgan global aksiologik jarayonlarning bugungi O'zbekiston jamiyatiga xos ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimiga ta'sirini chuqur o'rganish, bu sohada paydo bo'layotgan muammolarning samarali yechimlarini topish ehtiyoji kuchayib, ushbu yo'nalishdagi masalalarni tizimli tadqiq qilish vazifalari nihoyatda dolzarblashib bormoqda. Mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning bu yo'nalishdagi samarasini yanada oshirish uchun hozirgi davrdagi mavjud qadriyatlar tizimini yanada takomillashtirish va uning yangilanish mehanizmini maqbullashtirishga doir yaxlit konseptual ilmiy ishlanmalarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Bu boradagi innovatsion yondashuvlar va ularni amalga oshirishga xizmat qiladigan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati ham ortib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020 yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz

buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak".

Ushbu xulosa asosida fikr yuritsak, bugungi kunga kelib qadriyatlar bilan bog'liq mavzular ko'lami kengayib borayotgani, ushbu yo'nalishda xilma-xil qarashlar va dolzarb masalalar paydo bo'layotganini alohida qayd etish lozim. Ayni paytda, mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida qadriyatlar omilining ta'sirini yanada kuchaytirish kabi dolzarb masalalar ham mazkur mavzuni dolzarblashtirib yubordi. Bu borada qadriyatlarni qayta baholash, azaliy sharqona va milliy qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga meros qoldirish, islohot va o'zgarishlarning qadriyatli me'zonlarini aniqlash, mazkur jarayon bilan bog'liq muammolarni hal qilishning umuminsoniy me'zonlariga mos usullarini qo'llash kabi masalalarning ilmiy-amaliy tahlillariga ehtiyoj kuchaydi.

Alohida ta'kidlash lozimki, mustaqillik davrida jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida ro'y bergan yangilanishlar jarayonining yo'nalishlari va asosiy tamoyillarini tahlil qilishga qaratilgan tizimli tadqiqotlar mamlakatimizning bu yo'nalishdagi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari bo'lgan O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand Davlat universiteti, Respublika Ma'naviyat markazi, "Ijtimoiy fikr" markazi (O'zbekiston), O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati kabi universitet va ilmiy markazlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda qadriyatlar mavzusining turli masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida X.Shayxova, O'.Abilov, T.Komilova, Q.Nazarov, M.Jakbarov, A.Erkaev, B.Ochilova, R. Ro'ziyeva, Sh.Oripov, A.Haydarov kabi olimlar va mutaxassislarining izlanishlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ayni paytda, O'zbekistonlik olimlar X.Shayxova va Q.Nazarovlarning "Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot" (Toshkent, 1992), J. Tulenovning "Qadriyatlar falsafasi" (Toshkent, 1998), Q.Nazarovning "Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi" (Toshkent, 1995, 2011), J.Bahronovning "SHaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari" (Samarqand, 1997), V. Qo'chqorovning "Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar" (Toshkent, 2007), R. Ro'ziyevaning "Jamiyatning ma'naviy yangilanishi: milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" (Toshkent, 2011) kabi kitoblarning mavzuni o'rganishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Bu jabhada ayniqsa, T.Abdullayevning "Turmush sohasida umuminsoniy va milliy qadriyatlar dialektikasi", A.Yunusovning "Demokratik jamiyat va ma'naviy qadriyatlar rivojida milliylik va umuminsoniylikning o'zaro aloqasi", Q.Nazarovning "Qadriyatlar tizimi: barqarorlik va o'zgarishlar dialektikasi", R.Ro'ziyevaning "Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish masalalari" mavzuidagi doktorlik va A.Xaydarovning "O'zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy ma'naviy qadriyatlarining o'rni", A.Abdirazzoqovning "Milliy ma'naviy qadriyatlar va ularni xalqning o'zligini anglashidagi o'rni va ahamiyati" va A.Muratboyevaning "Xalqning axloqiy qadriyatlari va ularni O'zbekistonning ma'naviy tiklanishidagi ahamiyati" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyalarini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Chet ellarda ham, jahonda yetakchi hisoblanadigan ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida, qadriyatlar va ular bilan bog'liq aksiologik tizimlarga doir masalalarni o'rganishda muhim natijalar qo'lga kiritilgan. Jumladan, AQShning "Massachusetts" instituti, Indiana Universiteti, "Stanford Universities premier research" instituti for the study of International Affairs, Center for International Studies University of Pittsburgh, Woodrow Wilson International center for scholars kabi universitet va ilmiy markazlarida nafaqat Amerika, balki butun dunyo mamlakatlari uchun muhim bo'lgan global qadriyat tizimlari va ularga xos umumbashariy me'zonlar shakllanishining qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, Fransiyaning the University of Sorbonne va Germaniyaning Humboldt Universitat olimlari Evropa ittifoqida ishtirok etayotgan davlatlarda yashovchi turli

xalqlarning qadriyatlarini tizimida har bir ishtirokchi mamlakatning milliy xususiyatlari va umumiyevropa manfaatlarini hisobga olish lozimligini isbotlaganlar. Buyuk Britaniyaning Oxford Universiteti, Cambridge Universiteti, Manchester Universiteti kabi xorijiy OTM olimlari Hindistonning Central Asian Studies va Jawaharlal Nehru Universiteti bilan hamkorlikda Britaniya imperiyasi, Osiyo va Hindistonga xos qadriyatlar tizimining muhim jihatlari va ularning zamonaviy transformatsiyasi jarayonlarining ustuvor yo'nalishlarini aniqlaganlar. Yaponiyaning Research Instituti for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo Universiteti of Foreign Studies hamda Janubiy Koreyaning Asia Research Instituti kabilari esa uzoq sharq xalqlariga xos qadriyatlar tizimining muhim ko'rsatkichlari va umumiy me'zonlarini aniqlagan bo'lsalar, Yaponiyaning Kiofo Universiteti olimlari milliy o'zlikni asrash, yaponlarning azaliy qadriyatlarini zamonaviylashtirish, yapon milliy g'oyasini asrab qolish barobarida eng ilg'or ma'rifiy davlat tuzish yo'llari va usullarini izlab topgan bo'lsalar, Janubiy Koreyaning National University of Seoul universiteti mutaxassislari koreys milliy an'analari, urf-odatlarini ustuvor bo'lgan ma'naviy hayot tamoyillarini zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashtirish yo'llarini aniqlaganlar, global va milliy-etnik omillarning ijtimoiy-aksiologik ahamiyatini ko'rsatib berganlar [3].

Bularning barchasi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimi va ular bilan bog'liq masalalar va muammolar jahon va mamlakatimiz olimlari va mutaxassislarining diqqati qaratilgan mavzular qatoriga kirishi, ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borilayotganidan dalolat beradi. Ayni payda, hozirgi davrda O'zbekistonda shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimining yanada takomillashuvi va samarali amal qilish imkoniyatlari bilan bog'liq jihatlari, bu sohada innovatsion yangilanish jarayonlariga doir masalalar alohida mavzusi sifatida tadqiq etilmagan.

Jamiyatning tub burilish bosqichlarida qadriyatlar tizimi, kishilarni ularga munosabati o'zgarish shunchalik shiddatli tus oladiki, bu jarayonning tezkor sur'atlarini anglash, izohlash va asoslashga eng dialektik tafakkur usuli ham ulgira olmay qoladi Biz taraqqiyotimiz davomida bu fikr to'g'riligiga ishon hosil qildik.

Xullas, O'zbekistonni mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Mustaqillik tufayli dunyoga eshik ochish, jahon maydoniga, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga sobitqadamlik bilan kirib borishi, o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy savdo va boshqa sohalarida keng hamkorlikni yo'lga qo'yish O'zbekistonni uning boy o'tmishi, madaniyati, hozirgi kunini va bu erda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayoni dunyoga tanishish imkoniyatlari ochildi.

Bugungi kunda zaminimizda yashayotgan va bizga zamondosh bo'lgan kishilar hayotida yangi davr boshlandi. Yfngi mutaqil O'zbekistonimizning milliy istiqboliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini barqaror qilish, bu tizimda qadriyat shakllarining dialektik uyg'unligiga erishish, inson qadri, qobiliyati, istedodini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish borasidagi dolzarb vazifalar hozirgi avlod hayotining mazmuniga aylandi.

Mazkur sohada zimmamizdagi vazifalarni bajarishda ma'naviy- ma'rifiy vositalar hamda targ'ibotning ta'sirchan usullarini qo'llash, faoliyatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Bu esa har birimizni ushbu yo'nalishda faol va omilkor bo'lishga undaydi hamda barchamizga ulkan ma'suliyat yuklaydi.

Ushbu mavzuning mustaqillik yillarida shakllangan qadriyatlar tizimining istiqbol davrida amalga oshirilgan islohotlar va bugungi kundagi tub o'zgarishlar ta'siridagi o'zgarishlari, ushbu jarayonning samarali yo'llari va o'ziga xos vositalarini izlab topish masalalarining haligacha maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lmagani ham bu boradagi izlanishlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: "O'zbekiston", 2016. 114-116 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: "O'zbekiston", 2017. 90-93 b.
3. Nazarov Q.N. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: O'FMJ, 2011. 230-233 b.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.
- research.samdu.uz platformasiga maqolalar yuboriladi

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir

A. I. Inatov

Muharrirlar:

I.Sulaymonov

- fil.f.n., dotsent

E. U. Arziqulov

- f.-m.f.d., dotsent

O. Yusupova

- fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev

- k.f.n., dotsent

A. Sh. Yarmuxamedov

- f.-m.f.n.

X. S. Haydarov

- f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,

Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.

Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:

axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga
12.02.2022 yilda ruxsat etildi. Qog`oz o`lchami A-4. Nashriyot hisob tabog`i 10,00.

Buyurtma raqami 516. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.

